

**O‘ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
JARAYONLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH****Xudayarov Oybek Odilovich***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**“Bank hisobi va auditi” kafedrası PhD., dotsenti**Email: o.khudoyorov@tsue.uz***Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**“Bank ishi” yo‘nalishi magistranti**E-mail: mehribonu02@gmail.com***«IMPROVING THE INTERNAL AUDIT SYSTEM IN THE PROCESS OF
ESTABLISHING THE OPERATIONS OF ISLAMIC BANKS IN
UZBEKISTAN»****Khudayarov Oybek Odilovich***Tashkent State University of Economics**Department of “Bank Accounting and Audit”**PhD, Associate Professor**Email: o.khudoyorov@tsue.uz***Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi***Tashkent State University of Economics**Master’s student in the field of “Banking”**E-mail: mehribonu02@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston sharoitida islom banklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonida ichki audit tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xalqaro tajribalarga tayangan holda, islom banklarida ichki auditning o‘ziga xos jihatlari va shariat me‘yorlariga muvofiqlikni ta‘minlashdagi roli ochib berildi. Tadqiqot natijalari ichki auditning mustaqilligi va malakasi, tavakkalchiliklarni boshqarish hamda shariatga muvofiqlik nazoratini uyg‘unlashtirish O‘zbekiston islom banklari barqarorligining muhim omili ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada islomiy banklar faoliyatini tartibga soluvchi yangi qonunchilik va diniy-huquqiy talablar doirasida ichki audit xizmatini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch soz‘lar: islomiy bank, ichki audit, tavakkalchiliklarni boshqarish, shariat nazorati, O‘zbekiston, diniy-huquqiy me‘yorlar, moliyaviy inklyuziya

Abstract. This article examines the improvement of the internal audit system during the establishment of Islamic banking operations in Uzbekistan. Drawing on international experience, it highlights the unique aspects of internal audit in Islamic banks and its role in ensuring compliance with Shariah norms. The research findings indicate that the independence and expertise of internal auditors, integration of risk management, and Shariah compliance monitoring are critical for the stability of Islamic banks in Uzbekistan. The article also provides recommendations for organizing internal audit functions under the new legal framework and religious regulations governing Islamic banking.

Key words: Islamic bank, internal audit, risk management, Shariah compliance, Uzbekistan, regulatory framework, financial inclusion

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida moliya sektorini diversifikatsiya qilish, aholining keng qatlamlarini bank xizmatlaridan foydalanishga jalb etish va moliyaviy inklyuziyani oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda aholining bir qismi diniy e'tiqodi sababli an'anaviy foizli bank xizmatlaridan foydalanmasligi mamlakatda islomiy bankchilik tizimini joriy etish zarurligini yanada kuchaytirdi. BMT Taraqqiyot Dasturi va Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekiston aholisining 60–70 foizi foizli moliyaviy xizmatlardan diniy sabablarga ko'ra foydalanmayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa iqtisodiyotda katta hajmdagi bo'sh mablag'lar rasmiy moliya sektoriga jalb etilmayotganini anglatadi. Islomiy banklar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ushbu resurslarni iqtisodiyotga yo'naltirish, investitsiya faolligini oshirish va ichki bozorni jonlantirish imkoniyati tug'iladi.[8]

Islom banklari faoliyatida asosiy farqlovchi jihat – bu foiz (ribo)ning man etilishi, aktivlar bilan ta'minlangan moliyaviy operatsiyalar, sheriklik asosidagi foyda-zarar taqsimoti va shariat me'yorlariga qat'iy rioya etilishidir. Shu bois islomiy banklarning muvaffaqiyatli faoliyati nafaqat moliyaviy mexanizmlarning to'g'ri tashkil etilishiga, balki ichki audit tizimining mukammal ishlashiga ham bevosita bog'liqdir. An'anaviy banklarda ichki audit asosan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va ichki nazorat tizimining samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lsa, islomiy banklarda bu vazifaga qo'shimcha ravishda shariatga muvofiqlik auditi ham yuklanadi. Bu esa ichki audit xizmatining rolini yanada kengaytiradi va auditorlardan shariat huquqi, fiqh va islomiy moliyaviy mahsulotlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

So'nggi yillarda hukumat tomonidan islomiy moliya tizimini rivojlantirish uchun zarur normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda. Xususan, "Islomiy banklar faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasining qabul qilinishi, tijorat banklarida islomiy "deraza"lar ochish imkoniyati, shariat kengashlarini tashkil etish tartibining belgilanishi ushbu

yoʻnalishning institutsional asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga, islomiy moliyaga ixtisoslashgan Ichki audit, Shariat maslahatchilar kengashi, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati ham dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda.[9]

Xalqaro tajriba, xususan Malayziya, Bahrayn, Saudiya Arabistoni, BAA kabi yetakchi islom moliya markazlari amaliyoti shuni koʻrsatadiki, islomiy banklar barqarorligining eng muhim omillaridan biri bu – kuchli, mustaqil va shariatga muvofiqlikni toʻliq qamrab olgan ichki audit tizimining mavjudligidir. Ichki audit orqali bankning barcha mahsulotlari va operatsiyalari shariat talablariga mosligi muntazam ravishda tekshiriladi, xavfli va man etilgan tranzaksiyalar oldi olinadi, bankning obroʻ xavfi minimal darajaga tushiriladi. Shuning uchun Oʻzbekistonda yangi tashkil etilayotgan islom banklari uchun ichki audit tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish nihoyatda muhim.

Ushbu maqolada Oʻzbekiston uchun islomiy banklar ichki auditi tizimini yaratish va takomillashtirishning xalqaro tajriba, iqtisodiy amaliyot va diniy-huquqiy asoslar bilan uygʻunlashtirilgan konseptual modeli ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy bankchilik va uning nazorat tizimiga oid ilmiy-adabiy manbalarda soʻnggi yillarda qator tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, ular Oʻzbekistonda islomiy moliya bozorining shakllanishi, huquqiy bazaning takomillashuvi hamda ichki audit va shariat nazorati institutlarining oʻrni bilan chambarchas bogʻliqdir. Aksariyat tadqiqotchilar Oʻzbekistonda aholining sezilarli qismi anʼanaviy foizli bank xizmatlaridan diniy eʼtiqodi sababli foydalanmayotgani, shu bois islomiy moliyaviy mahsulotlarga ehtiyoj ortib borayotganini taʼkidlaydi [6], [7]. Ularning fikricha, islomiy banklarning joriy etilishi moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, aholi jamgʻarmalarini rasmiy moliya sektoriga jalb etish hamda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkin [6], [12].

Islomiy moliya tizimini rivojlantirishda normativ-huquqiy bazaning yetarlicha mukammal emasligi koʻp hollarda asosiy toʻsiqlardan biri sifatida qayd etiladi. Ayrim mualliflar Oʻzbekistonda amaldagi bank va soliq qonunchiligida islomiy moliyaviy operatsiyalarni toʻliq qamrab oluvchi aniq mexanizmlar mavjud emasligini, bu esa islomiy banklar va “islomiy deraza”lar faoliyatini joriy etishda qator amaliy muammolarni keltirib chiqarishini taʼkidlaydi [6], [10], [11]. Shu nuqtai nazardan, “Islomiy banklar faoliyati toʻgʻrisida”gi alohida qonun, shariat kengashlari maqomi, shariatga mos moliyaviy shartnomalar (murabaha, mushoraka, mudaraba va boshqalar) va ularning soliqqa tortish tartibini aniq belgilab berish zarurati ilmiy adabiyotlarda alohida urgʻu bilan koʻrsatiladi [6], [10], [12]. Qator maqolalarda bu islohotlar nafaqat diniy ehtiyojni qondirish, balki Oʻzbekistonga qoʻshimcha investitsiyalar jalb etish,

iqtisodiyotga milliardlab dollarlik resurs kirib kelishini ta'minlash omili sifatida baholanadi [11], [12].

Islomiy banklarda ichki audit va shariat nazorati masalalari xalqaro miqyosda ham keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa korporativ boshqaruv va risk-menejment bilan bog'liq yondashuvlar ilmiy adabiyotlarda muhim o'rin egallaydi. Grant Thornton ekspertlari islomiy banklarda ichki auditning odatiy tijorat banklariga nisbatan bir qator o'ziga xos jihatlari borligini, xususan, shariat prinsiplari, murakkab va noyob moliyaviy mahsulotlar, auditorlar uchun maxsus bilim va ko'nikmalar talab etilishini ta'kidlaydi [3]. Ular fikricha, islomiy banklarda ichki audit faqat moliyaviy ko'rsatkichlar va ichki nazorat tizimini emas, balki barcha operatsiyalarning shariat me'yorlariga muvofiqligini ham izchil baholashi zarur [3], [5].

Ichki shariat auditi sifatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda (masalan, Liviya islomiy banklari bo'yicha olib borilgan ishlar) ichki auditning mustaqilligi, auditorlarning malakasi, shariat bo'yicha yetarli bilim va tajriba, shuningdek, shariat kengashlari bilan o'zaro aloqalar audit sifati va islomiy banklar obro'siga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi [4]. Bunday tadqiqotlar ichki shariat auditini faqat rasmiy nazorat mexanizmi emas, balki bankning shariatga mos ishlashini kafolatlovchi strategik funksional yo'nalish sifatida baholaydi [4], [5].

Islomiy moliyaviy institutlar uchun maxsus ishlab chiqilgan AAOIFI standartlari, xususan ichki shariat auditi bo'yicha boshqaruv standarti (GS 11) ham adabiyotlarda alohida o'rganiladi. Ushbu standardda ichki shariat auditining maqsad va vazifalari, auditorlarning kasbiy etikasi, tekshiruvlarni rejalashtirish, hujjatlashtirish va natijalarni hisobotlarda aks ettirish tartibi batafsil yoritilgan [5]. Tadqiqotchilar fikricha, AAOIFI, IFSB va IIA kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar islomiy banklarda ichki audit faoliyatini yagona mezonlar asosida yo'lga qo'yish, turli mamlakatlardagi amaliyotni uyg'unlashtirish hamda audit sifati va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi [3], [4], [5], [14].

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, islomiy banklar faoliyatida ichki audit tizimini takomillashtirish masalasi uchta asosiy yo'nalishda o'rganilgan: birinchidan, islomiy banklar bozorining shakllanishi va makroiqtisodiy ahamiyatiga doir ishlar [6], [7], [12]; ikkinchidan, normativ-huquqiy baza va shariat me'yorlari bilan bog'liq muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha takliflar [6], [10], [11]; uchinchidan, ichki audit va shariat nazoratining o'ziga xos xususiyatlari, kadrlar salohiyati, korporativ boshqaruv va risk-menejment bilan integratsiyasi [3], [4], [5], [13], [14]. Mazkur maqola aynan shu uch yo'nalishni O'zbekiston sharoitiga mos holda birlashtirishga, ya'ni islom banklari ichki audit tizimini xalqaro standartlar, iqtisodiy talablar va diniy-huquqiy me'yorlar uyg'unligida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda tahlil va qiyosiy metodlardan foydalangan holda, islomiy banklarda ichki audit tizimini takomillashtirishga doir xalqaro standartlar hamda O'zbekiston sharoitidagi huquqiy asoslar o'rganildi. Xususan, AAOIFI (Islom moliyaviy institutlar buxgalteriya va audit tashkiloti)ning ichki audit va shariat auditi bo'yicha standartlari hamda Islomiy moliya xizmati bo'yicha kengashlar (IFSB)ning tavsiyalari tahlil qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Markaziy bankining tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish haqidagi 2021-yilda qabul qilingan Nizomi va yangi "Islom banklari faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi normalari o'rganilib, ulardagi talablarga muvofiq tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot manbalarini tahlil qilishda xalqaro tajribaga oid ochiq axborotlar, normativ hujjatlar va ilmiy maqolalar ma'lumotlaridan foydalanildi. Xalqaro tajriba sifatida Malayziya, Bahrayn, BAA kabi ilg'or islomiy bank tizimiga ega davlatlarda ichki audit va shariat nazorati amaliyoti ko'rib chiqildi. Olingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston sharoitiga mos takomillashtirish choralarini belgilash uchun tahliliy umumlashtirish usuli qo'llandi. Tadqiqot natijalari sifatida ichki audit xizmatining tuzilmasini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda diniy va iqtisodiy talablarni uyg'unlashtirishga doir xulosalar keltirildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Rasm 1. Xalqaro tajriba: Islomiy bank filialida mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayoni. Xalqaro tajribada, xususan Malayziya va Fors ko'rfazi davlatlarida, islom banklarining muvaffaqiyatli faoliyati ichki nazorat va audit tizimining kuchliligi bilan chambarchas bog'liq. Islom banklarida ichki audit odatiy auditorlik vazifalaridan tashqari shariat me'yorlariga rioya qilinishini nazorat qilish kabi o'ziga xos funksiyalarga ega. Grant Thornton konsultatsion kompaniyasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, islom banklarida ichki audit Shariat prinsiplari, noyob moliyaviy mahsulotlar va auditorlarning maxsus bilimlariga asoslangan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlar islomiy banklarga o'z mijozlari va investorlariga bergan va'dalariga sodiq qolgan holda ishlash imkonini yaratadi. Xalqaro amaliyotda islom banklari odatda ichki audit tarkibida yoki alohida tarzda Shariat auditi bo'limini joriy etadilar. Misol uchun, Birlashgan Arab Amirliklari, Malayziya kabi mamlakatlarda har bir islomiy bankda Shariat maslahatchilar kengashi va ichki Shariat audit funksiyasi mavjud bo'lib, ular bank faoliyatini shariatga muvofiqlik jihatidan muntazam tekshirib boradi. 2019-yilda AAOIFI tomonidan qabul qilingan "Islomiy moliyaviy institutlarda ichki shariat auditi" standarti (GS 11) ham aynan ichki audit xizmatining shariat talablariga rioya etilishini ta'minlash tartiblarini belgilaydi. Bu standartga muvofiq, islomiy bank ichki auditi uchun professional talablar, etika qoidalari, hujjatlashtirish

va hisobot berish tartiblari aniq belgilab berilgan bo'lib, bunday yagona standartlar global amaliyotni uyg'unlashtiradi va ichki audit sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.



1-rasm. Islomiy bank tizimi rivojlangan davlatlarda moliyaviy inklyuziya¹

Xalqaro tajribadan ko'rinadiki, islomiy banklar faoliyatini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish uchun ularda kuchli ichki audit va shariat nazorati tizimi bo'lishi shart. Malayziya misolida olib qaralganda, mamlakat Markaziy banki ma'lumotiga ko'ra 43 ta bankdan 17 tasi aholiga shariat tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlar ko'rsatmoqda. So'nggi o'n yilda Malayziyada islomiy banklar aktivlari o'sish sur'ati 12,4% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich an'anaviy tijorat banklarinikidan (10,9%) yuqori bo'lgan. Islomiy banklar sektorining bunday jadal o'sishi ulardagi korporativ boshqaruv va ichki nazorat tizimlarining samarali yo'lga qo'yilgani, jumladan shariat talablariga qat'iy rioya qilinishi bilan bog'liq. Demak, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ichki auditning mustahkam bo'lishi islomiy banklarga raqobatdosh ustunlik berib, mijozlar ishonchini oshiradi va natijada moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi.

Iqtisodiy jihatlar. Islomiy banklarda ichki audit tizimini takomillashtirish nafaqat ichki boshqaruv samaradorligi, balki keng iqtisodiy ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida islomiy banklarni joriy etish orqali yirik hajmdagi bo'sh mablag'larni iqtisodiyotga jalb qilish va norasmiy sektorni qisqartirish kutilmoqda. Davlatimiz rahbari islomiy moliya tizimini keng tatbiq etish hisobiga iqtisodiyotga qo'shimcha 5 milliard AQSh dollari hajmida resurs kirib kelishi mumkinligini ta'kidlagan. Bunday natijalarga erishishda ichki audit xizmatining hissasi ham muhim bo'ladi, zero, ichki audit bank faoliyatining shaffofligi va ishonchliligini ta'minlab, investorlar va omonatchilar uchun bankka bo'lgan ishonchni oshiradi.

¹ Muallif ishi

Dunyo bo'yicha islomiy moliya bozori o'sish sur'atlari (2019–2023)²

Yil	Islomiy moliya bozori hajmi (trln. \$)	Yillik o'sish (%)	Izoh
2019	2.44	11.4%	Bozor o'sishi asosan Fors ko'rfazi davlatlaridagi bank aktivlari hisobiga ta'minlangan
2020	2.68	9.8%	Pandemiya sharoitida islomiy banklar barqarorlik ko'rsatkichlari an'anaviy banklarga nisbatan yuqori bo'lgan
2021	3.06	12.2%	Sukuk (islomiy obligatsiyalar) emissiyasi keskin oshgan
2022	3.34	9.3%	Malayziya va Indoneziyada ichki audit va shariat nazorati talablarining kuchaytirilishi bozorni sezilarli kengaytirdi
2023	3.75	12%	KOFI (Islomiy moliya indeksleri) bo'yicha o'sish, shariatga mos investitsiyalarga talab keskin oshgan

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, so'nggi besh yil ichida islomiy moliya bozori barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. 2019–2023 yillar oralig'ida bozordagi jami aktivlar hajmi 2.44 trln. dollardan 3.75 trln. dollarga yetib, 53% o'sish qayd etgan. Majburiy ichki audit va shariatga muvofiqlik tizimlarini kuchaytirish bo'yicha xalqaro talablarning joriy etilishi bozorning kengayishiga sezilarli ta'sir qilgan.

Bu dinamika islomiy banklarda ichki audit tizimi samaradorligini oshirish O'zbekiston uchun ham iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Diniy-huquqiy jihatlar. Islomiy banklar faoliyatida eng asosiy farqlovchi omil – bu shariat qonun-qoidalariga rioya qilishdir. Shuning uchun ichki audit tizimini takomillashtirishda diniy-huquqiy talablarni inobatga olish birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Islom dini ko'ra bank operatsiyalarida foiz (ribo) olish, xatarli qimor va pul tikish (maysir) hamda noaniq kelishuvlar (gharar) qat'iyan taqiqlangan. Ichki shariat auditi bank hech qanday man etilgan faoliyatga qo'l urmasligini tekshiradi, ya'ni foizli operatsiyalar, qimor xarakteridagi tranzaksiyalar va noqonuniy unsurlar yo'qligini tasdiqlaydi. Shariat auditi moliyaviy operatsiyalar halolligini mustaqil

² IFSB Islamic Financial Stability Report (2024), AAOIFI Annual Review (2023) asosida umumlashtirilgan.

baholab, bank har qanday ruxsat etilmagan daromad olish usullaridan yiroq turishini kafolatlaydi. Bu nafaqat moliyaviy intizom, balki bankning obro'sini saqlash masalasidir – agar shariat qoidalarini buzilsa, mijozlar ishonchi yo'qolishi va butun islomiy bank tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda islom banklari faoliyatini qonuniy tartibga solish maqsadida maxsus qonun ishlab chiqilmoqda. 2025-yilda "Islomiy banklar faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qabul qilinib, Senat ko'rib chiqishiga yuborildi. Ushbu qonun asosida mamlakatda to'laqonli islom banklariga alohida litsenziya berish, shuningdek, an'anaviy banklarga "islomiy derazalar" (maxsus shariat xizmatlari bo'limlari) ochish huquqi taqdim etilishi belgilandi. Qonun loyihasi islomiy moliya operatsiyalarining huquqiy mexanizmlari, jumladan murabaha, mudaraba, mushoraka, vakola, salam kabi kontraktlarning asosiy prinsiplari va soliqqa tortish masalalarini ham o'z ichiga olgan. Eng muhimi, Markaziy bank huzurida va har bir islom banki tarkibida Shariat bo'yicha maslahat kengashlari (islom moliyasi kengashlari) tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu kengashlar islomiy banklar faoliyatini doimiy ravishda diniy ekspertiza qilib boruvchi organ sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, endilikda O'zbekistonda ham islomiy banklarda ichki audit xizmatlari Shariat kengashlari bilan uzviy hamkorlikda ishlashi talab etiladi.

Ichki auditning diniy-huquqiy jihatlarini ta'minlash uchun, avvalo, ichki auditorlarning shariat ilmi bo'yicha yetarli saviyaga ega bo'lishi zarur. Xalqaro amaliyotda ba'zi banklar ichki auditorlarini maxsus "Islomiy moliya va audit" bo'yicha sertifikatlar bilan ta'minlashadi. O'zbekiston sharoitida ham bu yo'nalishda kadrlar tayyorlash muhimdir. Markaziy bank 2021-yilgi Nizomida ichki auditorlar jamoasi tarkibida tavakkalchiliklarni boshqarish, buxgalteriya hisobi yoki tashqi audit bo'yicha kamida bir yillik ish tajribasiga ega bo'lish talabini qo'ygan. Kelgusida islomiy banklar uchun esa bunga qo'shimcha ravishda shariat ilmi bo'yicha malaka talablarini joriy etish maqsadga muvofiq. Masalan, har bir islomiy bank ichki audit bo'limida shariat masalalari bo'yicha ekspert-auditor lavozimi kiritilishi lozim. Bu mutaxassis Shariat kengashi bilan hamkorlikda bankning yangi mahsulot va operatsiyalarini dastlabki diniy ekspertizadan o'tkazadi, shuningdek, ichki audit tekshiruvlari davomida diniy jihatlar bo'yicha xulosalar beradi.

2-jadval

Islomiy banklarda ichki audit talablarining xalqaro standartlar bilan solishtirilishi

Mezon	O'zbekiston Markaziy banki talablari	Xalqaro ichki audit standartlari (IIA, Basel)	Islomiy moliya standartlari (AAOIFI, IFSB)
-------	--	---	--

1. Ichki auditning mustaqilligi	Audit xizmati Kuzatuv kengashiga bo'ysunishi shart	Mustaqillik va xolislik IIA standartlarining asosiy tamoyili	Shariat kengashi bilan alohida mustaqil aloqada bo'lishi lozim
2. Auditorlarning malakasi	Kamida 1 yil audit/risk bo'yicha tajriba talab qilinadi	Professional sertifikatlar (CIA, CISA) tavsiya etiladi	Shariat auditi bo'yicha maxsus bilim va fiqh-muomalot malakasi talab etiladi
3. Riskka yo'naltirilgan audit	Risk-menejment tizimini baholash majburiy	Basel Core Principles asosiy talab sifatida bayon etadi	Shariatga mos risklar (non-compliance risk) alohida hisoblanadi
4. Audit rejalashtiruvi	Yillik reja Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi	IIA – strategik va operatsion audit rejalari bo'lishi kerak	Shariat auditi yillik tekshiruvlar bilan bir qatorda mahsulot auditi ham o'tkaziladi
5. Hujjatlashtirish	Audit hujjatlari maxsus tartibda yuritiladi	Audit yozuvlari to'liq, tekshiruv natijalari izchil bo'lishi shart	Fatvo, shariat qarorlari va diniy ekspertiza hujjatlari qo'shimcha ravishda yuritiladi
6. Kuzatuv kengashiga hisobot berish	Har chorakda hisobot taqdim etiladi	IIA – muntazam reporting	Shariat kengashiga alohida hisobot taqdim etiladi
7. Ichki nazorat tizimini baholash	Bankning barcha bo'linmalari bo'yicha baholash	Nazorat muhiti, nazorat faoliyati, xavflarni boshqarish tamoyillari asosida	Shariatga muvofiq nazorat jarayonlarining mavjudligi baholanadi
8. Diniy-huquqiy muvofiqlik	An'anaviy banklarda qo'llanilmaydi	Xalqaro audit standartlarida mavjud emas	Islomiy banklar uchun majburiy: foiz, maisir, gharar taqiqlari bo'yicha tekshiruv

9. Shariat kengashi bilan hamkorlik	Yangi tizimda joriy etilishi kutilmoqda	Bunday mexanizm mavjud emas	Shariat maslahatchilari bilan majburiy integratsiya
10. Moliyaviy mahsulotlar ekspertizasi	Maxsus reglament ishlab chiqilmoqda	An'anaviy banklarda mavjud emas	Har bir mahsulot bo'yicha shariat ekspertizasi va fatvo talab qilinadi

Ushbu 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning ichki auditka qo'yilgan talablar xalqaro standartlarga yaqinlashib bormoqda, biroq islomiy banklar uchun zarur bo'lgan shariatga muvofiqlik auditi bo'yicha bir qator qo'shimcha mexanizmlar joriy etilishi lozim. Xususan, AAOIFI va IFSB standartlarida auditorlarning shariat bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, har bir moliyaviy mahsulotning shariatga mosligi bo'yicha alohida ekspertiza o'tkazilishi hamda ichki auditning Shariat kengashi bilan muntazam integratsiyalashgan ishlashi majburiy tamoyil sifatida belgilangan. Bu farqlar ichki audit tizimini takomillashtirishda O'zbekiston uchun muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi.

Yana bir muhim masala – ichki audit xizmatining mustaqilligi va xolisligini ta'minlash. Islomiy banklarda ichki auditorlar uchun diniy-huquqiy mavzularda xulosa berish jarayonida mustaqillik juda dolzarb, chunki ba'zi hollarda daromadni oshirish istagi shariat tamoyillariga zid bo'lishi mumkin. Markaziy bank nizomida ichki audit xizmati korporativ boshqaruv standartlariga muvofiq bank tuzilmasida mustaqil tarkibiy bo'linma bo'lishi, hamda uning xodimlari faoliyat davomida har qanday manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi qat'iy belgilangan. Ushbu prinsiplar islomiy banklar uchun ham xuddi shunday, balki yanada qat'iy tatbiq etilishi lozim. Ichki auditorlar bank daromadini kamaytirsam ham shariatga xilof operatsiyalarni to'xtatish yuzasidan tavsiya berishga jur'at eta oladigan darajada mustaqil bo'lishi kerak. Bu borada, ichki audit bo'limi rahbari (Bosh auditor)ning bevosita Kuzatuv kengashi va audit qo'mitasiga hisob berishi, ijroiya rahbariyatdan funktsional mustaqil bo'lishi talab etiladi.

XULOSA

O'zbekistonda islomiy banklar faoliyatini yo'lga qo'yish arafasida ichki audit tizimini takomillashtirish masalasi g'oyat dolzarbdir. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, islomiy banklarda ichki audit odatiy audit vazifalariga qo'shimcha ravishda shariat me'yorlariga muvofiqlik ustidan nazoratni ham samarali amalga oshirishi zarur. Ichki audit xizmati shariat talablariga rioya etilmasligi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini taklif qilishi lozim. Ikkinchidan, O'zbekiston sharoitida islomiy banklar ichki auditi mustahkam risk-menejment amaliyotini joriy etishi shart.

Tavakkalchiliklarga yo'naltirilgan audit yondashuvi orqali bankning moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi va bu islomiy banklarning iqtisodiyotdagi o'rni mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, ichki auditning mustaqilligi va xolisligi tamoyillariga qat'iy rioya etilishi ta'minlanishi kerak – ayniqsa, diniy-huquqiy jihatlarida bank manfaatlari va shariat talablarini muvozanatlashda auditorlar mustaqil pozitsiyada bo'lishi lozim. To'rtinchidan, yangi qabul qilinayotgan qonunchilik doirasida har bir islomiy bankda Shariat kengashi tuzilishi belgilanganligi tufayli, ichki audit ushbu kengash bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi va shariat ekspertizasi natijalarini o'z tekshiruvlari bilan integratsiya qilishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ichki audit tizimini takomillashtirish uchun kadrlar salohiyatini oshirish masalasi ham asosiy o'rinda turadi. Islomiy banklar auditorlari nafaqat moliyaviy va nazorat sohasida, balki shariat qoidalari bo'yicha ham chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Shu sababli, O'zbekistonda bu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash va sertifikatsiyalash dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ichki audit tizimi takomillashuvi islomiy banklar faoliyatining shaffofligi va ishonchliligini oshirishga, natijada keng jamoatchilikning ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa islomiy banklar orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish, iqtisodiyotga qo'shimcha sarmoya oqimini ta'minlash va aholining turli qatlamlarini bank xizmatlariga kengroq jalb etish kabi strategik maqsadlarga erishishga zamin yaratadi. Shunday qilib, islomiy banklar ichki audit tizimini xalqaro standartlar va mahalliy diniy-huquqiy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirish O'zbekistonning moliya tizimida yangi sahifa ochib, innovatsion va adolatli bank amaliyotini qaror toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Markaziy banki (2021). "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom. Lex.uz hujjati 3302-son, 07.05.2021kun.uzkun.uz. (Banklarda tavakkalchiliklarga yo'naltirilgan ichki auditni joriy etish tartibini belgilovchi normativ hujjat).
2. Kun.uz (2021). "Banklarda ichki audit qanday o'tkazilishi ma'lum bo'ldi." 31 may 2021 yil kun.uzkun.uz. (Markaziy bankning ichki audit bo'yicha yangi nizomi qabul qilingani haqida xabar).
3. Grant Thornton (2023). "Internal audit of the Islamic Bank." 07 August 2023 grantthorntonkz.com. (Islomiy banklarda ichki auditning o'ziga xos jihatlari haqida konsalting kompaniyasi tahlili).
4. Alghamati, A.K. (2024). "Determine the Factors Affecting the Quality of Internal Shariah Audits: A Review Paper on Islamic Banking in Libya." JBSEE, 10(4) publishing.globalcsrc.org publishing.globalcsrc.org. (Ichki shariat audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar tahlili, xalqaro adabiyot sharhi).
5. AAOIFI (2019). "AAOIFI issues three final governance standards for industry adoption." AAOIFI press-reliziaaoifi.com. (Islomiy moliya institutlari uchun Ichki Shariat audit standarti (GS 11) qabul qilingani haqida e'lon).

6. Akhmadjonov, O.X. (2024). *“O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirishni me‘yoriy-huquqiy islohotlar orqali rivojlantirish.”* “Ekonomika i sotsium” jurnali, №4(119), 2024iupr.ruiupr.ru. (Islomiy moliya rivojida huquqiy islohotlar zarurati haqida ilmiy maqola).
7. Yoldosheva, I. (2023). *“O‘zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o‘rni.”* “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2023 yil dekabr, №11-12researchgate.netresearchgate.net. (Xorijiy mamlakatlar misolida islomiy bankchilik tajribasi va uni O‘zbekistonda joriy etish masalalari yoritilgan).
8. Frank.uz (2025a). *“Markaziy bank 2030-yilgacha kamida 10 ta islom banki paydo bo‘lishini prognoz qilmoqda.”* 25 oktabr 2025 yilfrank.uzfrank.uz. (O‘zbekiston Markaziy banki islomiy banklar bo‘yicha rejalari va islomiy “deraza”lar tashkil etilishi haqida maqola).
9. Frank.uz (2025b). (ingliz tilida) *“The Central Bank forecasts the emergence of at least 10 Islamic banks by 2030.”* 25 October 2025frank.uzfrank.uz. (Maqolaning inglizcha talqini, unda 68% aholi an‘anaviy bank xizmatlaridan diniy e‘tiqod sabab foydalangisi kelmasligi va islomiy banklar moliyaviy inklyuziyani kengaytirishi haqida ma‘lumot keltirilgan).
10. Kun.uz (2025). *“Uzbekistan prepares legal foundation for Islamic finance system.”* 11 November 2025kun.uzkun.uz. (O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etish bo‘yicha qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilingani haqida xabar).
11. Qalampir.uz (2025). *“Uzbekistonda islomiy banklar to‘g‘risida qonun qabul qilinmoqda.”* 14 noyabr 2025qalampir.uz. (Mazkur maqolada islomiy moliya joriy etilishi orqali 5 milliard AQSh dollargacha qo‘shimcha resurs jalb etilishi mumkinligi va boshqa kutilayotgan iqtisodiy samara haqida ma‘lumot berilgan).
12. Islom Taraqqiyot Banki & BMTTD (2024). *“O‘zbekiston hukumati islom moliya vositalari uchun qulay muhitni rivojlantirishga yordam bermoqda.”* BMTTD press-relizi, 17 sentabr 2024undp.org. (Islomiy bank tizimini joriy etish bo‘yicha qonunchilik bazasi ishlab chiqilayotgani va davlat idoralari o‘rtasida hamkorlik qilinayotgani haqida axborot).
13. Basel Committee on Banking Supervision (2012). *“Core Principles for Effective Banking Supervision.”* (Markaziy bank Nizomi ishlab chiqilishida asos sifatida foydalanilgan Basel qo‘mitasining ichki audit bo‘yicha tamoyillarikun.uz).
14. Institute of Internal Auditors (2017). *“International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing.”* (Markaziy bank Nizomida e‘tirof etilgan ichki auditning xalqaro standartlarikun.uz, ichki audit kasbiy mezonlari).